

TA'LIM SIFATINI OSHIRISH MAQSADIDA YURTIMIZDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Otamurodova Gulzoda Hayitmurod qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti Fransuz filologiyasi

kafedrasi 4-bosqich talabasi.

E-mail: otamurodovagulzoda@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada yurtimizda so'ngi yillarda ta'lism sohasi bo'yicha hamda uning sifatini oshirish, baholash tizimida olib borilayotgan islohotlar haqida so'z yuritilgan. Shuningdek bu sohada foydalilanigan turli xorij tajribalari hamda ulardan ko'zlangan maqsad va ularning ahamiyati haqida ham aytib o'tilgan. Bir so'z bilan aytganda, ta'limga bo'lgan e'tibor so'nggi yillarda qanchalik darajada o'zgarganganligi ham bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lism, konsepsiya, Uyg'onish davri—Renessans, ta'lism shakli, "Ta'lism to'g'risida"gi qonun.

Аннотация: В данной статье говорится о реформах, проводимых в сфере образования и системе его повышения качества и оценки за последние годы в нашей стране. Также упоминается о различном зарубежном опыте, используемом в этой области, его цели и значении. Короче говоря, это показывает, как в последние годы изменился акцент на образовании.

Ключевые слова: образование, концепция, Ренессанс, форма образования, Закон «Об образовании».

Annotation: this article talks about the reforms that have been carried out in the field of education and its quality improvement and evaluation system in recent years in our country. It is also mentioned about various foreign experiences used in this field and their purpose and importance. In short, it shows how the focus on education has changed in recent years.

Keywords: education, concept, Renaissance, form of education, Law "On Education".

Kirish

Bugungi kunda O'zbekiston kundan kunga rivojlanib borayotgan bir davrda ta'limga bo'lgan e'tibor ham yanada kuchaytirilmoqda. Ta'lism sohasini tubdan rivojlantirish maqsadida ta'lism sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda, PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro dasturlarda, xalqaro reytinglarda yuqori mavqega erishgan davlatlar tajribasini o'rganish, ularni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Turli xorijiy davlatlar tajribasi asosida o'zimizning milliy baholash tizimimizni yaratish hamda mamlakatimiz miqyosida ta'lism sifatini baholash yuzasidan xorijiy mutaxassislar bilan birgalikda ilmiy metodik vebinarlar tashkil etilmoqda. Bundan asosiy maqsad ta'lism sifatini baholashga doir tadqiqotlar o'tkazish ,chet el tajribasini o'rganish va shu orqali mamlakatimizda ta'lism sifatini oshirishdir. Chunki, mamlakatimizning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqidir.

Bugungi kunda yurtimizdag'i barcha talim muassasalarining ta'lism berish hamda talabalar va o'quvchilarining ta'lism olish jarayoni yanada takomillashtirilib, asrlar davomida shakllangan

ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo‘lmoqda. Muhtaram prezidentimiz tomonidan 2019-yilning oktyabrida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi.Ushbu konsepsiyaga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiyaning asosiy mazmuni mamlakatimiz oliy ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi.Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, biz keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bizning oliy ta’limdagi faoliyatimiz eng avvalo maktabda olgan bilimlarimizdan boshlanadi. Maktabda olgan bilimlarimiz oliy ta’limning poydevori desam adashmagan bo‘laman. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni yechish imkonи tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekistonostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikri qo‘llab-quvvatlaydi”. Bugungi kunda ta’lim sohasida nafaqat oliy ta’lim balki maktab va maktabgacha bo‘lgan ta’lim tizimlariga ham e’tibor kuchaytirilgan. Jumladan, 2023 yil 11 oktyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasida “Adolat” SDP fraksiysi tashabbusi bilan “Hukumat soati” bo‘lib o‘tdi. Unda deputatlar tomonidan “Umumiyo‘rta ta’limni yangi bosqichga olib chiqish, ta’lim sifatini oshirish va ta’lim dasturlarini takomillashtirish borasidagi vazifalardan kelib chiqib, sohadagi boshqaruv tizimini tashkil etishga qaratilgan qonunchilikning bajarilishi holati to‘g‘risida”gi masala muhokama qilindi. Prezidentimiz rahbarligida keyingi yillarda mamlakatimizda ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, maktab o‘quv darslik va o‘quv qo‘llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish hamda ularning yangi avlodini yaratish, o‘qituvchi kasbining maqomi va obro‘sini ko‘tarish, ularning moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Endilikda maktablarda ta’lim sifatini oshirishda ikki asosiy yo‘nalish belgilangan. Shulardan birinchisi, o‘qituvchilarining bilim saviyasi, kasb mahoratini oshirishdir. Bunda o‘qituvchi yuqori bilimga ega bo‘lmasa, kelajak avlodga hech narsa bera olmasligi nazarda tutilgan, bugun ayrim o‘qituvchilar sifatli dars o‘tishga emas, ko‘proq dars soat olishga intilishi bor gap. Darhaqiqat, shunday, afsuski, bugun o‘qituvchilarini bolalarning ta’lim olishi emas, ko‘proq o‘z manfaati qayg‘uga soladi. Shuningdek , davlatimiz rahbari topshirig‘iga ko‘ra, boy tajribaga ega pedagoglar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilayotgan Xalq ta’limi vazirining maxsus jamg‘armasi o‘qituvchilarining ish faoliyatini yanada rivojlantirish uchun o‘ziga xos motivatsiya beradi. Ta’lim sifatini oshirishdagi ikkinchi muhim yo‘nalish bu o‘quvchilar uchun zamonaviy darsliklar yaratish hisoblanadi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki maktab darsliklari tubdan yangilandi, ayniqsa maktablarda xorijiy tilni yanada chuqurlashtirib o‘tish boshlanganidan so‘ng o‘quvchilarining kitoblari ularning tinglash,o‘qish yozish va gapirish ko‘nikmalarini yana rivojlantirish maqsadida yangicha metodlar yordamida ishlab chiqilgan. Jumladan, bolalarning maktablarda sifatli ta’lim olishini kafolatlash, ularni darslarga muntazam ravishda ishtiroy etishini ta’minalash maqsadida milliy gvardiya xodimlari safarbar etilgan. Shuningdek o‘qituvchilarining malakasini oshirish yo‘lida ham turli islohotlar qilinmoqda. Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: «Maktab ta’limini rivojlantirmasak, yoshlarimiz sharoit bor joylarga ketadi»

Bundan tashqari, so‘nggi yillarda Oliy ta’lim sohasida ham sezilarli darajada o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Buning yorqin namunasi sifatida so‘nggi 5 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy

ta'lismuassasasi, shuningdek, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliv o'quv yurtlarining soni 125 taga yetganini ko'rishimiz mumkin. Ko'plab nodavlat oliv ta'lismuassasalari faoliyati yo'lga qo'yildi. Maktab bitiruvchilarini oliv ta'limga qamrab olish darajasi 2016 yilgi 9 foizdan 2020 yilda 25 foizga etdi. Sirtqi va kechki talim shakllari qayta tiklandi. Qabul kvotalari oshirildi, shuningdek davlat grantlari soni ham oshirildi. Kam ta'minlangan oila farzandlariga qo'shimcha imtiyozlar yaratildi. Magistratura bosqichida ta'lismoladigan xotin qizlar shartnoma pullari to'liq davlat tomonidan qoplab beriladigan bo'ldi. Jumladan, bizning eng katta yutuqlarimizdan biri ta'lismizda qabul qilingan eng muhim hujatlardan biri bu – "Ta'litm to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo'ldi. Mazkur Qonunga asosan ta'lismuhosasidagi asosiy printsiplar, ta'litmizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi, unda belgilangan masofaviy ta'litmahqidagi qoidalar o'quv rejalarini va o'quvdasturlariga muvofiq ta'lilmoluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.

Kulosa

Va xulosa o'rnida davlatimiz rahbarining quyidagi so'zlarini keltirib o'tmoqchiman.

"Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'litmiz va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'litmizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq."

Shavkat MIRZIYOYEV

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr "O'zbekiston Respublikasi oliv ta'litmizini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. /Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi
3. Raxmonov D.A. O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishni takomillashtirishning metodologik asoslari.
4. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection In French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.
5. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and "pakana's love".." Конференции. 2021.
6. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
7. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into "Historical Memory" in French and Uzbek

- Linguistic Traditions." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
8. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
 9. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 2.11 (2023): 490-492.
 10. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятларо мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." Академические исследования в современной науке 2.17 (2023): 165-169.
 11. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." Academic research in educational sciences 3.5 (2022): 1176-1182.
 12. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 879-884.
 13. ЯХШИБОЕВА, Нодира. "The role of tourism terminology in french." O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023,[1/4] (2023).